
TOMORQA - RO'ZG'ORGA TAYANCH

Qo'shtepa tumanidagi ko'pgina xonadonlarda tomorqadan 3 marotabagacha hosil olinmoqda.

Darhaqiqat, yaqinda davlatimiz rahbari tomonidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham yurtimizda tomorqadan unumli foydalanish uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligi, shuningdek, tomorqa katta daromad manbai ekanligi, undan kamida yil davomida 2-3 marta hosil olish imkoniyati mavjudligi ham ta'kidlangan edi.





Prezidentimizning bu boradagi fikrlarini to'la qo'llab-quvvatlagan holda Qo'shtepa tumanida karantin qoidalariga qat'iy amal qilinib, mutasaddi tashkilotlar tomonidan tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Bugun tuman hokimi I. Novikov 1-sektor hududidagi Qumtepa va Yangi do'kon mahalla fuqarolar yig'inlarida bo'lib, mavjud aholi tomorqalaridan samarali foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda yerlarni ekishga tayyorlash, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirilish holatlari bilan tanishdi.







2020-04-20 16:41:28